



KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-noyabr kuni Birlashgan Arab Amirliklari Hukumat ishlari bo‘yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Gargaviy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Vazir al-Gargaviy davlatimiz rahbariga Amirliklar Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon va mamlakat vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubai

Amiri Shayx Muhammad Ol Maktum hamda vitse-prezident Shayx Mansur Ol Nahayonning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbatda ikki tomonlama munosabatlar kun tartibidagi dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston bilan BAA o‘rtasidagi ko‘p qirrali alo-

qalar yuqori sur‘atda rivojlanayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi, qo‘shma korxona va loyihalar soni barqaror oshib bormoqda.

Qabul qilingan “Yo‘l xaritasi” doirasida, shu jumladan, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, boshqaruv kadrlarini tayyorlash va raqamli hukumatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma dasturlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Qariyb mingta seminar, forum va o‘quv kurslari o‘tkazilib, ularda 2 million nafargacha mutaxassisimiz mamlakatga oshirdi.

Uchrashuvda samarali boshqaruv, savdo salohiyatini rivojlantirish, shaharlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yuksak texnologiyalar, sun‘iy intellekt va boshqa yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani tasdiqlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

ENERGETIKA TIZIMINING QISHGA TAYYORGARLIK HOLATI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-noyabr kuni “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatida bo‘lib, energetika tizimining qish mavsumiga tayyorgarligi bilan yaqindan tanishdi.

Yil boshida kelgan anomal sovuqdan xulosa qilib, tizim salohiyati oshirildi. Avvalo, ichki imkoniyatlar to‘la ishga solinib, tarmoqlar modernizatsiya qilindi. Qolaversa, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda ish olib borildi. Muassasa, korxona va turar joylardagi dolzarb masalalar o‘rganilib, bartaraf etildi. Bu ishlar har bir mahallagacha yetib bordi.

— Bu yil energetika tizimini yaxshilashga barcha manbalardan 14,5 trillion so‘m ajratdik. Qanday xomashyo, buyum, texnika kerak bo‘lsa, olib berildi. Endi soha rahbarlari mas‘uliyatni to‘liq zimmasiga olib, aniq reja qilishi va energiya yetkazib berishni kafolati ta‘minlashi zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Joriy yilning o‘tgan davrida 675 megavattli elektr quvvatlari ishga tushdi. Respublika bo‘yicha 100 ta podstantsiya, 11,5 mingta transformator va 34 ming kilometr tarmoqlar yangilandi.

Aholi va korxonalarni tabiiy gaz bilan barqaror ta‘minlash maqsadida qo‘shimcha 5 milliard kub metr kafolati gaz manbalari hal qilindi. Yerositi omborlarida yetarlicha gaz zaxirasi jamlandi.

Prezidentimiz sovuq kunlarda energiya resurslariga bo‘lgan talabni kafolati

ta‘minlash bo‘yicha mutasaddilarning hisobotini eshitdi.

Energetika vaziri ajratilgan mablag‘ evaziga joriy yilda qilingan ishlar va yaratilgan zaxira, kunlik iste‘mol va uni ta‘minlash mo‘ljallari to‘g‘risida axborot berdi.

Qayd etilganidek, energetika tizimi 1-dekabrden 24 soatlik ish tartibiga o‘tadi. Yaqin oylarda 1 ming 700 megavattli 8 ta quyosh va shamol elektr stantsiyasi, Sirdaryoda 500 megavattli gaz turbinasi ishga tushiriladi. Surxondaryodagi Sharg‘un konida 900 ming tonna ko‘mir qazib chiqarish boshlanadi.

Shuningdek, suyultirilgan gaz, mazut, transformator, kabel va boshqa zarur vositalarning zaxirasi tayyorlab qo‘yilgan.

Davlatimiz rahbari energiya manbalarini barqaror yetkazib berish, shu bilan birga, to‘lov intizomini ta‘minlash muhimligini ta‘kidladi. Noqonuniy ulanishlarga chek qo‘yish, ob-havoga qarab, iliq kunlarda energiya resurslarini iqtisod qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Tadbirda “O‘ztransgaz”, “Hududgaz-ta‘minot”, “Hududiy elektr tarmoqlari”, “Is-siqlik elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatlar rahbarlari ham axborot berdi.

O‘ZA



NUQTAYI NAZAR

HAR QARICH YERNING O‘Z EGASI aniq hisobi bo‘ladi

Yurtimizda yer maydonlaridan uzoq yillar davomida o‘zboshimchalik bilan foydalanilib, aksariyatining egasi ham noma‘lum bo‘lgan. Bu mavjud yerlardan foydalanishda ko‘plab muammolarni yuzaga keltirdi. Vaqt o‘tib, yer hisobini yuritish, kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash muhim vazifalardan biriga aylandi.

Ayniqsa, sohani raqamlashtirish ish ko‘lami va sifatini oshirmoqda. Oxirgi uch yilda raqamlashtirish hisobiga 40 million gektar yoki jami yerlarning 90 foizi kadastrda davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Ammo bu tizimda barcha muammolar

hal etildi, degani emas. Hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘p. Raqamlashtirish ham doimiy davom etadigan jarayon va u orqali erishilayotgan natijalar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Davomi 2-betda



OGOHLIKKA DA‘VAT

Jahondagi notinchlik, kishi dilini xufton qiladigan turli voqea va hodisalardan bugun g‘aflatda qolishga hech kimning haqqi yo‘q. Mamlakatlarni, jamiyatni, oilalarni, insonni halokat va falokatga uchratadigan eng yomon musibatlar beparvolik, g‘aflat, loqaydlik illatlaridir.

TINCHLIK — SIVILIZATSIYA NE‘MATI urush esa uning ofatidir

Shu bois, tez o‘zgarib borayotgan bugungi shiddatli zamonda — axborot asrida befarq va beparvo bo‘lmasdan, aksincha, yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga daxldorlik hissi bilan yashash, jahonning turli hududlarida qayta bosh ko‘tarayotgan xavfli baloyu ofatlarga nisbatan har birimiz ogoh va sergak bo‘lishimiz shart. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, dunyodagi hozirgi murakkab vaziyat, qo‘shni mintaqalardagi ziddiyat va qurolli nizolar O‘zbekiston xavfsizligi va tinchligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etmoqda. Mutafakkirlar insoniyat o‘tmishga qarab turib kelajak sari qadam tashlaydi,

degan hikmatni bot-bot takrorlaydi. Illo, bani bashar uchun moziyning, tarixning saboqlari, xulosalari muhimdir.

Dunyo qirq yil ichida ikkita jahon urushini boshdan o‘tkazdi. Ikkinchisida ellik million odamning umri xazon bo‘ldi. Urush keltirgan jafolar, azob-uqubatlar, ayriliqlar, xastaliklar, jarohatlar, hijronlar, xorlik va zorliklar, yo‘qchiliklar tufayli vaqtdan burun dorulifanodan dorulbaqoga rixlat etgan jonlar miqdorini kim hisoblab chiqdi ekan? Umuman, kulfatni, baxtsizlikni raqamlarda ifodalab bo‘ladimi? Yaqinlarning ko‘nglidagi vahimani, qo‘rquvni-chi?

Davomi 3-betda



YANGICHA YONDASHUVLAR

LOYIHALAR FABRIKASI

TADBIRKOR YOSHLARNING FAOLİYATINI TEZDA YO‘LGA QO‘YIB, EKSPORTNI RAG‘BATLANTIRISHGA IMKON YARATADI

Ko‘plab hududlarda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tashkil etilishi mazkur qatlamning tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish, bandligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Termiz shahridagi “Tinchlik” yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi ham yoshlar tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, investitsiya oqimini ta‘minlash, yangi quvvatlarni ishga tushirishga imkoniyat yaratayotgan maskanlardan biridir.

— 2 gektar maydonni egallagan “Tinchlik” yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasida bugungi kunda 42 loyiha joylashtirilgan, — deydi Surxondaryo viloyati Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish direktori Baxtiyor Ortiqov. — Loyihalar qurilish materiallari ishlab

chiqarish, kimyo va neft kimyosi, mebelsozlik, oziq-ovqat, to‘qimachilik sanoatiga taalluqli. Eng muhimi, barcha korxonalar ishga tushgach, 500 dan ortiq ish o‘rni yaratiladi.

Davomi 5-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN OZARBAYJONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 23-24-noyabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Boku shahrida BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) birinchi sammitida ishtirok etadi.

Tadbir kun tartibidan dastur doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish, mintaqaviy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun Maqsadli fond tashkil etish, transport yo‘laklarini raqamlashtirish uchun “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilish, ishbilarmonlik tashabbuslarini ilgari surish va boshqa masalalar o‘rin olgan.

SPEKA dasturi mintaq mamlakatlari iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish

hamda ularning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga ko‘maklashish maqsadida 1998-yil 26-mart kuni Toshkent deklaratsiyasiga muvofiq ta‘sis etilgan. Ishtirokchi davlatlar — O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston.

Shu kunlarda Boku shahrida SPEKAning qator ishbilarmonlik tadbirlari, shu jumladan, iqtisodiy forum va Markaziy Osiyo mamlakatlari sanoat salohiyati ko‘rgazmasi o‘tmoqda.

O‘ZA

MINTAQAVIY HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH – MARKAZIY OSIYO IQTISODIY FAROVONLIGINING GAROVI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-24-noyabr kunlari amaliy tashrif bilan Ozarbayjonda bo‘ladi va BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi (SPEKA) birinchi sammitida ishtirok etadi

BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi (SPEKA) 1998-yil 26-martda ta‘sis etilgan.

SPEKAning asosiy vazifasi mintaqadagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ko‘maklashish, ishtirokchi mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun transchegaraviy hamkorlik platformasini taqdim etishdir.

Boshqaruv kengashi SPEKA qarorlarini qabul qiladigan oliy rahbarlik organi hisoblanadi. U vazirlar yoki vazir o‘rinbosarlari darajasidagi milliy koordinatlar hamda BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi hamda Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyaning ijrochi kotiblaridan iborat.

SPEKAg a‘zo mamlakatlardan biri Boshqaruv kengashi raisi hisoblanadi. Raislik qilayotgan mamlakat odatda bir yil muddatga saylanadi. Qarorlar konsensus asosida qabul qilinadi.

Hozirgi paytda Ozarbayjon SPEKAg raislik qilmoqda.

SPEKA iqtisodiy forumi har yili tashkil etiladi, unda mintaqadagi iqtisodiy rivojlanish va hamkorlikning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga ko‘maklashadigan alohida strategik masalalarga asosiy e‘tibor qaratiladi. Forum barcha manfaatdor tomonlar o‘rtasida yuqori darajadagi siyosiy muloqot uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi va SPEKA Boshqaruv kengashi uchun aniq tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Davomi 2-betda



2021-yil 17-19-noyabr kunlari Toshkentda Boshqaruv kengashining 16-yig‘ilishi g‘ibrid formatda bo‘lib o‘tdi. Uning yakunlari bo‘yicha SPEKA masalalarining keng doirasini qamrab olgan o‘ndan ortiq qaror qabul qilindi.

Shu davrda SPEKAning “Pandemiya keyin” yashil” va inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barqaror transport va savdo” mavzusiga bag‘ishlangan iqtisodiy forumi ham bo‘lib o‘tdi.

Forum yakunlari bo‘yicha pandemiya keyingi ekologik, ko‘p qirrali va inklyuziv iqtisodiyotni tiklash uchun transport, savdo va aloqa barqarorligini mustahkamlash bo‘yicha Toshkent bayonoti qabul qilindi. SPEKA submintaqasining iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligini oshirish, uni barqaror transport tizimi markazi sifatida tashkil etish uchun sharoit yaratish, mintaq ichidagi savdo tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish va BRMga erishishni jadallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.



“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI

ILMIY ASOSLANGAN SUG‘ORISH TIZIMI

Bugun ekilayotgan ko‘chatlar azim daraxtlarga aylanishi uchun kerak

Global iqlim o‘zgarishlari sharoitida bugungi kunga kelib, atrof-muhit va havoning ifloslanib borayotgani butun dunyo hamjamiyatini tashvishlantirmoqda. Shu bilan birga, tabiatdagi bunday salbiy o‘zgarishlar inson salomatligi, yashash sharoiti, ekotizim buzilishi va cho‘llanish darajasi oshishiga olib kelmoqda. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: buning oldini olish mumkinmi? Inqirozni faqat va faqat daraxt ekib, bog‘-rog‘lar barpo etib, tabiat musaffoligini asrash orqaligina bartaraf etish mumkin. Aynan shuning uchun ham Prezidentimiz tashabbusi bilan “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilyapti. Loyiha doirasida 2030-yilga borib, yurtimizdagi o‘rmonzor va butazorlar maydoni 6,1 million gektarga yetkaziladi.

Davomi 4-betda



MINTAQAVIY HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH – MARKAZIY OSIYO IQTISODIY FAROVONLIGINING GAROVI

Boshlanishi 1-betda

2022-yil 26-27-oktabr kunlari Toshkentda SPEKAning transport va logistika aloqasini rivojlantirish bo'yicha ishchi guruhi 27-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar SPEKAga a'zo davlatlarning tashqi savdo, transport va tranzit sohasidagi xalqaro konvensiya va bitimlarga qo'shilishi masalasini muhokama qildi. Uchrashuv yakuni bo'yicha Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqasida mavjud va yangi transport yo'laklarini rivojlantirish, shuningdek, Toshkent shahrida Transport va kommunikatsiyalarni rivojlantirish mintaqaviy markazini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Hozirgi vaqtda dasturda ishtirok etuvchi davlatlar SPEKA kotibiyatini, shuningdek, BMTning Ko'psherkilik trust fondlari asosida SPEKA jamg'armasini yaratish bo'yicha ishlarni davom ettirmoqda.

SPEKA vazirlarining 2023-yil aprel oyida Jenevada bo'lib o'tgan uchrashuvida qo'shma bayonot qabul qilindi, unga binoman maqsadli jamg'armani tashkil etish to'g'risida kelishuvga erishildi.

Mintaqa davlatlari o'rtasidagi mustahkam aloqalar, ishtirokchi mamlakatlar xalqlari an'analari, urf-odat va madaniy qadriyatlari yaqinligi O'zbekistonning so'nggi yillardagi faol tashqi iqtisodiy siyosati bilan birgalikda savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirish nuqtayi nazaridan salmoqli natijalar berdi.

Keyingi yillarda O'zbekiston va SPEKA a'zolari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ikki barobar oshib, 9,2 milliard dollarga yetdi. O'zbekistonda mintaqada hududida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan korxonalar soni 2017-yildan buyon besh barobar ko'paygani holda 2212 taga yetdi.

Mintaqa mamlakatlarining savdo-iqtisodiy, salmoqli tabiiy va inson resurslari, qulay geografik joylashuvi hisobga

olingan holda ushbu salohiyatni ro'yobga chiqarishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Bular raqobatdosh ustunliklardan foydalangan holda o'zaro savdoni mustahkamlash va ko'paytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mavjud savdo to'siqlarini bartaraf etish, texnik reglamentlarni soddalashtirish, bojxona va chegara tartib-qoidalarini raqamlashtirishdan iborat.

BMT standartlaridan foydalangan holda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, transport yo'laklarini diversifikatsiya qilish va transkaspiy transport yo'lagi bo'yab multimodal ma'lumotlar va hujjatlar almashuvini raqamlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni qabul qilishga oid tashabbuslarni ilgari surishdagi hamkorlik faollashmoqda.

Bokuda bo'lib o'tadigan sammitda ustuvor yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikni yanada rivojlantirish, shuningdek, SPEKA tuzilmasi va faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilinadi.

Davlatimiz rahbarining bo'lajak sammitdagi ishtiroki O'zbekistonning mintaqaviy siyosati va mintaqalararo o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarining mantiqiy davomi bo'lib, unda ilgari suriladigan tashabbuslar mamlakatimizning SPEKA doirasidagi ko'p tomonlama, ochiq, amaliy va o'zaro manfaatli sheriklikni izchil rivojlantirishga sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Dunyo” AA



MUNOSABAT

HAYOTIY EVRILISH AKSI har bir sohadagi o'zgarish va yangilanishlarda namoyon

Surxondaryo yerosti va yerusti boyliklari serob viloyatlardan biri. Keyingi yillarda vohada agrar tarmoq qatori sanoat, qurilish, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalar ham izchil rivojlanib, yangi-yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Xususan, bugungi kun talablariga javob beradigan bog'cha, maktab, mahalla binolari, eng zamonaviy tibbiy jihozlarga ega oilaviy poliklinikalar qad rostlamogda. Tadbirkorlik jadal rivojlanib, ishlab chiqarish va eksport hajmi ortmoqda. Yangi-yangi korxonalar ochilishi aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan harakatlarning bir qismi, xolos.

Bugun viloyatda bo'layotgan katta o'zgarishlar, yangilanishlarni ko'rib behad quvonasiz, baxtiyor bo'lasiz. Ochiq, keyingi yetti yildagi o'zgarishlar, yangilanishlarni ko'rib, o'n yillab hal bo'lmagan masalalarni, mana, qilsa bo'lar ekan-ku, deysiz.

Davlatimiz rahbari viloyatga avvalgi tashrifi cho'g'ida ko'plab istiqbolli loyihalar bilan tanishib, qurilish-bunyodkorlik ko'lami-ni kengaytirish, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish bo'yicha mas'ullar oldiga aniq vazifalar qo'ygani edi. Istakning o'zi bilan ish bitmaydi, obodlik yo'lida har bir mutasaddi, aholi vakillari ham jon-jahdi bilan ishga kirishgan. Natijada o'tgan davrda Surxondaryoda sezilarli yangilanish va o'zgarishlar ro'y berdi. Bu yangilanishlardan faxr hissini tugyan surxondaryoliklar Prezidentimizning har bir tashrifini odamlar turmush darajasini oshirishga xizmat qilib, viloyatga baraka olib keladigan bayramona tadbir sifatida baholamoqda.

Inchunin, qisqa davrda vohada aholi yashash sharoiti yaxshilanishi, tayinli ish, doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi, oilasi bilan tinch-xotirjam yashashi uchun barcha imkoniyatlar ishga solinyapti. Mahalliy va xorijlik sarmoyadorlar mablag'i jalb etilib, yangi-yangi loyihalar boshlanmoqda. Osmonopar turar joy binolari va boshqa ijtimoiy soha obyektlari qad rostlab, keng, ravon yo'llar barpo etilayotir. Hududlarda "mahallabay" ishlash tartibi joriy etilib, har bir mahallada aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni keng rivojlantirish, infratuzilma bilan bog'liq muammolarni hal etish yo'lga qo'yildi.

Bir paytlar vohada ichimlik suv ta'minoti eng og'riqli masalalardan edi. Endi bu muammo sekin-asta chekina boshladi. Surxondaryoliklarni uzoq yillar qiyab kelayotgan toza ichimlik suv masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ko'plab xonadonlar ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlandi.

Mamlakat iqtisodiyoti va aholi o'sishi bilan elektr iste'moli ham kundan-kunga oshmoqda. Shu bois, gidroenergetikani rivojlantirishga katta urg'u berilmoqda. To'palang gidroelektr stansiyasi 2006-yilda ishga tushirilgan paytda jami 30 megavatt quvvatli ikkita agregati bor edi. Davlatimiz rahbari 2019-yil aprelda bu yerda bo'lib, yana ikkita gidroagregat qurish yuzasidan topshiriq berdi. Avvaliga suv ombori to'g'oni qo'shimcha 20 metr ko'tarildi. Natijada uning sig'imi 380 million kub metrdan 500 millionga yetkazildi. Zamonaviy texnologiyalar asosida qurilish-montaj ishlari bajarilib, jami quvvati 145 megavattli ikkita agregat o'rnatildi. Shu tariqa To'palang GESining umumiy quvvati 175 megavattga yetib, Chorvoq GESidan keyin mamlakatimizdagi ikkinchi yirik stansiyaga aylandi. Bu yerda yiliga qo'shimcha 467 million kilovatt-soat elektr quvvati yaratildi. Qariyb 167 mingta xonadonning elektr ta'minoti yaxshilandi. Bu yiliga o'rtacha 107 million metr kub tabiiy gaz tejalandi, degani.

O'zim ham surxondaryolikman. Har oyingning oxirgi haftasida xalq bilan muloqot qilish, odamlarni o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish maqsadida viloyatimiz hududlarida bo'lib, saylovchilar bilan muloqotlar o'tkazamiz. Ochiq, har gal biror o'zgarish yoki yangilanishning guvohi bo'lamiz. Eng muhimi, odamlar kayfiyati baland, islohotlardan mamnun. Oddiy misol. Yaqin-yaqingacha viloyatda ko'p bo'lgan paxsadevor maktablar, tomlari loy suvoqli uylar bugun keskin kamaydi. Mavjud ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilinyapti, yangilari barpo etilmoqda.

Shu bilan birga, 21 ta vazirlik va davlat idorasiga tegishli 49 ming 333 ko'chmas mulk obyektidan 6821 tasi davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan. Kadast agentligi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda 154 ta tuman va 5 ta shaharning ma'muriy chegaralari belgilangan bo'lsa-da, hokimliklar chegaralarni tasdiqlash ishlarini yakuniga yetkazmagani kamchiliklarimizdan biri. Yig'ilishda ularning chegarasini belgilash bo'yicha tayyorlangan hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va chegaralarni Oliy Majlis Senatida tasdiqlash topshirig'i berildi.

Agentlik oxirgi 5 yilda 42 463,5 gektar qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish ahvolini o'rgangan. Jarayonda ma'lum bo'lishicha, hokimliklar qaroriga asosan, to'g'ridan-to'g'ri loyiha tashabbuskorlariga ajratilgan 18 587,9 gektar yerning 4426,6 gektarida qurilish ishlari yakunlangan bo'lsa, 7224,2 gektarida davom etyapti, 7 ming gektarida esa boshlanmagan. Endilikda bo'sh turgan yerlarni zaxiraga qaytarish choralari ko'riladi. Shuningdek, barcha sanoat yerlarini to'liq xatlovdan o'tkazish vazifasi belgilangan.

Umuman, yer resurslaridan to'g'ri foydalanish, avvalo, ularning aniq hisobini yuritish va munosib egalarga berishga ham bog'liq. Bu borada mexanizm yaratishga kirishgannimiz, endilikda uning doimiy nazoratini ham birgalikda olib borishga intilyapmiz.

Inson qachon xotirjam hayot kechiradi, qachonki tayinli ish joyi bo'lsa. Birgina joriy yilning o'tgan davrida og'ir ahvoldagi 118 mahallada kasanachilik loyihalarini amalga oshirish evaziga qariyb o'n ming kishining bandligi ta'minlandi. Mahallalarga oilaviy tadbirkorlikni olib kirish orqali fuqarolarimiz toza ichimlik suv masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ko'plab xonadonlar ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlandi.

Qisqa davrda tibbiyot, ta'lim tizimlarida yuz bergan yangilanishlar ham odamlarda islohotlarga ishonch, yurt taraqqiyotiga daxldorik tuyg'usini yuksaltirmoqda. Albatta, bu o'zgarishlar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Buning uchun yirik mablag' ajratilib, voha salohiyatidan oqilona foydalanilmoqda. Mubolag'asiz aytish mumkin, bugun uzoqni ko'zlab yuritilayotgan pragmatik xalqchil siyosat tufayli odamlar yelkasidan tashvish, muammolar tog'i ag'darilmoqda, ko'ngillarga cho'kkan qorong'i pardalar sidirib tashlanmoqda. Orzu-havaslar qaytmogda, faxr-iftixor qaytmogda, shodlik qaytmogda.

Prezidentimiz shu yil 16-17-noyabr kunlari Surxondaryo viloyati navbatdagi tashrifi cho'g'ida vohada ijtimoiy-iqtisodiy sohalar-da yuz bergan olamshumul o'zgarishlar bilan tanishdi. Xususan, Termiz shahrida Surxondaryo viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda qator aniq vazifalarni belgilab berildiki, bu voha ahlini harakatga keltirgani, faollikka chorlagani rost. Bularning hammasi aholining ertangi kunga ishonchini yanada oshirib, ularni muammolardan qutqaradi.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan mamlakatimizning barcha hududlarida yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashkil etilmoqda. Bu ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun zamin bo'lmoqda. Termiz shahridagi Tinchlik mahallasi hududida ham shunday sharoit yaratildi. 2 gektar maydondagi binolarda jami 42 loyiha joylashtirildi. Ular qurilish materiallari, kimyo va neft kimyosi, mebelsozlik, oziq-ovqat, to'qimachilik sanoatiga taalluqli. Binolarni xarid qilish, uskunalar olib kelish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan

imtiyozli kreditlar tijorat banklari orqali ajratiladi. Barcha korxonalar ishga tushgach, 500 dan ortiq ish o'rni yaratiladi.

Prezidentimiz viloyatga tashrifi davomida Termiz shahrida barpo etilgan Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasini borib ko'rdi. Bu yerda joylashtirilgan korxonalar mahsulotlarini ko'zdan kechirdi. Ulardan biri anor sharbatini qadoqlab, qo'shni davlatlarga eksport qilmoqda. Yana biri kiyim va gilam to'qishni yo'lga qo'yib, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlagan.

Davlatimiz rahbari bunday sanoat zonalarini viloyatning har bir tumanida ochish, mahallalarda hunarmandlik, kasanachilikni kengaytirish zarurligini ta'kidladi. Ikki yillik tajribadan kelib chiqib, Surxondaryoda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha alohida qaror qabul qilish, bunga 50 million dollar mablag' ajratish bo'yicha taklif ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Albatta, yurtimizda yoshlarni har tomondan qo'llab-quvvatlashga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki Prezidentimiz aytganidek, bugungi tadbirkor yoshlar — yangi O'zbekiston mahsuli. Ularning bilimi ham, intilishi ham yangicha. Shuning uchun sanoat zonalarini yoshlarning o'ziga berish kerak.

Ezgulikka yo'g'rilgan amallar, xalqchil sa'y-harakatlarning hammasi har bir insonning qayerda yashashi va ishlashidan qat'iyl qaynab, qadr topishi, farovon yashashi, muvofiq-maqsadiga yetishi uchundir. Prezidentimiz qaysi viloyatga bormasin, avvalo, insonni rozi qilishga, uning farovon yashashi uchun zarur sharoitlar, imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratyapti. Surxondaryoda ham xuddi shunday bo'ldi.

Mazkur tashrif ham odamlar turmush darajasini oshirib, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Buning uchun barchamiz birgalikda harakat qilishimiz, inson qadri ulug'langan yurt rivoji, taraqqiyoti uchun bor kuch va salohiyatimizni safarbar etishimiz lozim.

Faxriddin SAMADOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



NUQTAYI NAZAR

HAR QARICH YERNING O‘Z EGASI aniq hisobi bo‘ladi

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 21-noyabr kuni yer resurslaridan oqilona foydalanish, hisobini yuritish hamda kadast xizmatlari sifatini yaxshilash masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ayni sohada bajarilishi lozim bo'lgan yangi topshiriqlar berildi. Kamchiliklar tahlil qilinib, yechimlar o'rta qashlandi. Bu soha vakillari, mutaxassislar oldiga aniq vazifalarni qo'yimoqda.

Mirsaid MIRMAQSUDOV, Kadastr agentligi direktori o'rinbosari:

— Keyingi yillarda yurtimizda yer resurslaridan oqilona foydalanish va yer munosabatlari sohasida qonuniylkni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilyapti. Ayniqsa, yer hisobini olish, davlat yer kadastri ma'lumotlarini to'g'ri yuritish faollashib, raqamlashtirish jarayoniga o'tildi. Ayni paytda mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha toifadagi yer resurslarini xatlovdan o'tkazish va respublika yer fondini to'liq qamrab olish tizimini takomillashtirish ishlari davom etmoqda.

Bu yo'nalishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ish samaradorligini yanada oshiryapti. Aerofotokamera va dronlar qo'llanilayotgani natijasida ko'p zaxiralar aniqlanmoqda. Masalan, Qashqadaryo viloyatining jami 2856,8 ming gektar yer maydonidan 2321,6 ming gektarida samolyot yordamida aerosuratga olish ishlari bajarildi. Birgina Qarshi tumanining jami 91,6 ming gektar yer maydonida olingan suratlardan foydalangan holda sug'oriladigan ekin yerlari xatlovdan o'tkazilganda, 5,1 ming gektar hisobotda ekin yeri sifatida ko'rsatilmagani ma'lum bo'ldi. Bu budjetga qancha tushum, qancha ish o'rni va daromad yo'qotilyapti, degani. Shu bois, Prezidentimiz tomonidan Kadastr agentligiga tuman va shahar hokimlari bilan birga yil yakunigacha aerosuratga olish ishlarini Toshkent shahri, Toshkent va vodiylarida, kelgusi yili esa qolgan hududlarda to'liq yakuniga yetkazish topshirig'i berildi.



Oxirgi 3 yil davomida UZKAD tizimi orqali yurtimizning 96 foiz yoki 43,1 million gektar yer maydonining elektron xaritasi yaratilib, 40,2 million gektari davlat ro'yxatidan o'tkazilgani ham raqamlashtirish mahsuli. Jarayonda o'tkazilayotgan tahlillar esa tegishli xulosalar chiqarishga turtki bermoqda. Hududlardagi 900 ming gektardan ortiq qishloq xo'jaligi yerini hisobga olishga ta'sir ko'rsatayotgan omillar, masalan, yerga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatning to'liq yoki qisman mavjud emasligi shular jumlasidan. Buning natijasida 286,2 ming gektar qishloq xo'jaligi yeridan foydalanib kelayotgan 10 mingdan ortiq yuridik va jismoniy shaxs foydalanuvchi sifatida hisobga olingan. Bunda eng yuqori ko'rsatkich Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, 159 ming gektar yerdan foydalanuvchilarning hujjatida ko'rsatilgan yer maydoniga nisbatan amaldagi yer maydoni o'rtasida tafovutlar mavjudligi sababli davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan. Qayd etilgan 19 ming 658 ta qishloq xo'jaligi korxonasining 460,5 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlari esa huquqiy maqomi aniq emasligi sababli ham shunday yo'l tutilgan.

Tahlillarga e'tibor qaratsak, yer maydonini ajratish bilan bog'liq qator muammolar to'planib qolgani ko'zga tashlandi. Xususan, uzoq yillar davomida sobiq

kolxoz, sovxoz yerlaridan aholiga uy-joy qurish uchun 817,1 ming gektar yer ajratilgan bo'lib, ular hisobotda qishloq xo'jaligi yerlari toifasida tomorqa sifatida yuritib kelinmoqda.

Hududlar kesimida bu ko'rsatkich Buxoroda 128,3 ming, Qashqadaryoda 117,8 ming, Samarqandda 85,9 ming, Toshkent viloyatida 78,8 ming gektarni tashkil etadi. Bunday holatlar o'z-o'zidan yer hisobotining to'g'ri yuritilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, 2024-yil 1-iyulga qadar bitta tuman misolida aholiga yakka tartibda uy-joy (tomorqa yer) va qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlarda bino-inshootlar qurish uchun ajratilgan yerlar toifasini o'zgartirish bo'yicha eksperiment o'tkazish belgilangan.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan suv fondi yerlari va ichki avtomobil yo'llari egallagan yerlarni hisobga olish va davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha ham mas'ul vazirlik hamda idoralarga tegishli ko'rsatmalar berildi. Gap shundaki, hozirgi kunga qadar yurtimizda mavjud 827 ming gektar suv fondi yerlaridan 318,3 ming gektarni hamda 172,1 ming gektar ichki avtomobil yo'llaridan 5,1 ming gektari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Ammo qolgan 509 ming gektar suv fondi va 167 ming gektar ichki avtomobil yo'llarining yer ajratish qarorlari va chegaralari belgilanmagani sababli hisobga olinmasdan qolmoqda.



TAHLILLARGA KO'RA, QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20 236,3 ming gektar. Uni kengaytirish bo'yicha katta ishlar qilinayotganiga qaramay, qishloq xo'jaligida 286 ming gektar yerning huquq belgilovchi hujjatlari to'liq emas. Doimiy foydalanish uchun ajratilgan 460 ming gektar yerning huquqiy maqomi aniq emas, 159 ming gektar yerning hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladi.

Dilrabo XOLBOYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi-ning Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi a'zosi:



— Yerdan samarali foydalanish na-faqat konstitutsiyaviy, balki kelajak avlod oldidagi eng katta burchimizdir. Keyingi yillarda yurtimizda bu resursdan oqilona foydalanish va yer munosabatlari sohasida qonuniylkni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotgani boisi shunda. Jumladan, yer resurslarini asrash, undan samarali foydalanish borasida ham keng ko'lami islohotlar kechmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligi yerlari bilan bog'liq munosabatlar barqarorligi ta'minlanib, ularning monitoringini yuritish, yer maydonlaridan foydalanish va muhofaza qilish tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan ishlar bir necha barobar faollashgan.

Bu hayotiy zarurat hamdir. Chunki yer xazina bo'lib, uning har qarichidan

unumli foydalanish mo'l hosil va baraka degani. Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi dunyoni jiddiy tashvishga solayotgan bir vaqtda sohaga zamonaviy yondashuv, aniq hisob-kitob bilan birga, mavjud yer maydonlaridan to'g'ri foydalanish talab etilmoqda. Qolaversa, hududlardagi iqtisodiy o'sish, oziq-ovqat xavfsizligi, ish o'rinlari va investitsiya oqimi, avvalo, yerga bog'liq.

Ammo sohada kamchiliklar qo'q emas. Birgina misol. Tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20 236,3 ming gektar. Uni kengaytirish bo'yicha katta ishlar qilinayotganiga qaramay, qishloq xo'jaligida 286 ming gektar yerning huquq belgilovchi hujjatlari to'liq emas. Doimiy foydalanish uchun ajratilgan 460 ming gektar yerning huquqiy maqomi aniq emas, 159 ming gektar yerning hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladi. Natijada jami 900 ming gektardan ziyod qishloq xo'jaligi yerlari kadastr ro'yxatidan o'tmasdan turibdi. Kadastr yo'qligi sababli ularni takroriy ekinlar uchun rasman ikkilamchi ijaraga berish imkoni bo'lmayapti. Bular tufayli kamida 300 ming ish o'rni, takroriy ekindan olinayotgan mahsulot hamda norasmiy ijaraning hisobi yuritilmayapti.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bo'yicha ulkan salohiyatga ega, toki yerga qor tushguncha hosil olish imkoniyati bor. Bundan samarali foydalanish, tabiat ne'matini borida qadrlash kerak. Iqtisodiyotimiz barqarorligi uchun ham, avvalo, yerni uvol qilmaslik, rizqu ro'z undirishda hafsalasiz va sust kayfiyatdan to'la xalos bo'lmoq lozim. Toki yerning umri zo'ye ketmasin, bozorlarimizdagi fayz-u barakaga putur yetmasin.

OGOHLIKKA DA'VAT

Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

 Boshlanishi 1-betda

Xalqimizda “Bir kun janjal chiqqan uydan qirq kun baraka ko’tariladi”, degan naql bor. Bunday janjallar mintaq miqyosida, qit’a miqyosida, butun yer yuzida yuzaga keltiradigan parokandalikni, inqirozni, baxtsizliklarni tasavvur etib ko’ring-a! Shu ma’noda, har qanday qirg’inbarot urush aslida insoniyatni tamaddun rivojidan ancha orqaga irg’itib tashlaydigan, hech qanday zalvorli vaj-karson bilan ham oqlab bo’lmaydigan qonli voqealikdir. Chunki har qanday urushning mohiyatida inson hayotiga qasd qilish istagi yotadi. Ta’bir joiz bo’lsa, urush odamning o’zi o’tirgan daraxt shoxini o’zi qirqishga tushishdir. Janjal olovda isinish uchun unga tinmay moy sepib turganlar bir haqiqatni anglab olishi lozim: urushda g’oliblar bo’lmaydi, vaqtda suv sepib qo’yilmasa, ertami-kechmi, bu och olov hammani domiga tortib ketadi, hech kimni chetlab o’tmaydi.

**O‘zbekiston taklifi:
nizolarni “ikki xalq uchun
ikki davlat” tamoyili
asosida hal qilish kerak**

Falastin va Isroil o’rtasidagi qurolli to’qnashuvlar avj olayotgani dunyoni tashvishga solib qo’ydi. Isroil armiyasi va XAMAS harakati o’rtasida davom etayotgan qurolli to’qnashuvlar oqibatida ayollar va bolalar qurbon bo’lmoqda, odamlar boshpanasidan ayrilmoqda, ular o’z uyini, jonajon Vatanini tashlab ketishga majbur...

Mamlakatimiz ham xalqaro maydondagi voqealarga munosabat bildirmoqda. Vaholanki, yaqin paytlargacha biz bunday nizolarga yuzimizni teskari burardik.

Prezidentimiz Yaqin Sharq mintaqasida keskinlashayotgan voqealarga Ostona shahrida Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlari kengashi yig’ilishi va Toshkentda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitidagi nutqida ham O‘zbekiston pozitsiyasini ochiq bayon etdi. Davlatimiz rahbari Falastin — Isroil muammosiga to’xtalar ekan, har ikki tomonni zudlik bilan gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga, jangovar harakatlarni to’xtatib, nizoni tinch yo’l bilan hal etishga chaqirdi. Muammoning yagona va eng adolatli yechimi — nizoni “**ikki xalq uchun ikki davlat**” tamoyili asosida hal etish ekanini ta’kidladi. Zo’ravonlik yanada avj olaversa, xalqaro vaziyatning keng miqyosda izdan chiqishiga, qurolli to’qnashuvlarga yangi kuchlar tortilishiga, bu esa Yaqin Sharq mintaqasi bilan cheklanmay, uzoq o’lkalarga ham tarqalib ketadigan, oqibatini bashorat qilib bo’lmaydigan fojialarga olib kelishi mumkinligiga e’tibor qaratdi.

Urush zanjir reaksiyasini keltirib chiqarishi, o’z domiga yaqin-yiroq hududlarni tortib ketishi ham hech gap emas. Shunday ekan, Falastin va Isroil tomonlari jangovar harakatlarni zudlik bilan to’xtatishi, tezda murosaga yo’liga o’tishi butun dunyo uchun foydali bo’ladi.

Davlatimiz rahbari Falastin va Isroil tomonidan qurbon bo’lgan barcha insonlarning oilalariga chin dildan ta’ziya va hamdardlik izhor etar ekan, G’azo sektori aholisiga baholi qudrat yordam ko’rsatish uchun BMTning Yaqin Sharq agentligiga 1,5 million dollar ajratishga qaror qabul qilganini bildirdi. Bu ko’p millatli va bag’rikeng O‘zbekiston xalqi ko’nglidagi gap bo’ldi.

Biz yashayotgan mintaq xalqlari dunyoga doim tinchlikni sog’inuvchi o’lka sifatida tanilib kelgan. Xalqimizning bag’rikengligi va mehmondo’stligi barchaga yaxshi ma’lum. O’zbek xalqi Ikkinchi jahon urushi yillarida ham og’ir sharoitlarda yurtimizga ko’chirilgan turli millat vakillariga hech ikkilanmasdan quchog’ini ochgan, topgan nonini o’rtada



baham ko’rgan. Biz turli millat va konfessiyalar vakillari o’zaro tinch-totuv hayot kechirishi tarafdorimiz. O’z navbatida, jahon hamjamiyatini ham bu masalaga bee’tibor bo’lmassikka, har qanday muammoni faqat va faqat tinchlik yo’li bilan hal etishga chaqirganmiz va shunday bo’lib qoladi ham. Bu prinsip yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida faol pozitsiya kasb etmoqda. Buni butun dunyoda katta tashvish va xavotir uyg’otayotgan masalalarga va ularning tinchlik yo’li bilan hal etilishiga doir munosabatlarimizda ham ko’rishimiz mumkin. Qurolli to’qnashuvlar boshlanganiga bir oy to’lmay 5000 dan ziyod bolalar va ayol halok bo’ldi.

**“Mehr” operatsiyasi —
mehrli siyosat samarasi**

Davlatimiz rahbarining Afg’oniston borasidagi mulohazalari kishini yanada sergaklikka undashi bilan qimmatli. Aynan shu mamlakat misolida urush, zo’ravonlik hech bir davlatga ezigulik olib kelmasiligi, aksincha, yovuzlik yana bir karra yovuzlik yaratishini anglatadi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko’ra, afg’on ayollarining 85 foizi, erkaklarning esa 51 foizi savodsiz, qishloq joylarda hattoki 8-10 yoshli qizaloqlar ham turmushga uzatilmog’da, bu mamlakatda ayollarning o’rtacha umr ko’rish darajasi 44 yosh-



ni tashkil etmoqda, 40 yildan ziyod vaqt mobaynida davom etgan urush tufayli kamida 1,5 million ayol beva qolgan, ular o’rtacha 35 yoshda. Dunyo bo’yiicha ishlab chiqarilgan geroinning 90 foizi aynan Afg’onistonda tayyorlanadi...

Biz dunyodagi eng tinch, eng osoyishtasiz va inson qadr-qimmatini yuksak baholanadigan mamlakatda yashayapmiz. Bu yurtning odamlari baxt nima ekanini juda yaxshi biladi. Buguni, ertasi va undan keyingi hayoti haqida bemalol orzular qiladi, katta rejalar tuzadi, farzandlari kamolini ko’zlab ulug’vor ishlarga qo’l uradi. Eng muhimi, bularni mutlaqo tabiiy jarayon sifatida qabul qiladi. Afsuski, dunyoning hamma davlatlari haqida ham bunday yorug’ fikrlarni bildirsa olmaymiz. Masalan, Suriya haqida...

Bu ko’hna zamindagi tartibsizliklar dastlab shunchaki, norozilik namoyishi sifatida boshlangan edi. Ammo tez fursatda u keng miqyosli fuqarolar urushiga aylandi va 10 yildan buyon qurolli to’qnashuvlar davom etmoqda.

Natijada qadimiy Shom diyoridagi boy madaniy merosning katta qismi vayron qilindi. Mamlakatdagi UNESCOning jahon merosi ro’yxatiga kirgan yodgorliklarning barchasiga zarar yetdi. Eng yomoni, urush natijasida 400 mingdan ziyod odam halok bo’ldi. UNICEFning qayd etishicha, fuqarolar urushi tufayli deyarli 12 ming bola o’lgan yoki jarohat olgan. Afsuski, shuncha yo’qotishlarga qaramay, urush alangasi hamon pasaygani yo’q.



Ha, bir paytlar ilm-fan yuksak taraqqiy etgan, ta’bir joiz bo’lsa, sivilizatsiya markazlaridan biri bo’lgan mamlakat bugun tamoman vayronaga aylandi. Minglab suriyaliklar ona diyorini tashlab, o’zga yurtlarda xoru zor, sarson-sargardon bo’lib yuribdi.

Taassufki, ana shu vayronaga aylangan yurtidan baxt, boylik, saodat, tole axtarayotgan insonlar ham yo’q emas. Ular orasida yurtdoshlarimiz ham borligi juda ayanchli. Xotini, farzandlari bilan ketgan erkaklarning ko’pchiligi o’zga yurtlarda halok bo’ldi. Mudhish va ayanchli xatoning badali qanchalik og’ir bo’lishini ularning yaqinlari, ayniqsa, urush domida qolgan ayollar va bolalar o’z taqdirida ko’rdi.

O‘zbekiston davlati va xalqining saxovat, adashganni to’g’ri yo’lga qaytarishdek insonparvarlik qadriyat tufayli ularga tinchlik, farovon hayotning qadriga yetish, shu yurt qadr topishdek imkoniyat qayta nasib qildi. Masalan, Shohista Nabiyeva Beshariq shaharchasi Chorboq mahallasida istiqomat qilgan. 2016-yildan buyon qidiruvda bo’lgan bu ayol erining ortidan farzandlari bilan uchinchi mamlakatlar orqali Suriyaga borib qolgan. Eri jangohlarda nobud bo’lgach, sarson-sargardonlikda yashagan. Besh norasidani jondiratib, og’ir kunlarni boshidan kechirgan ayol endi o’z uyida. Ha, mudhish va ayanchli xatoning badali qanchalar og’ir bo’lishini bu ayollar yaxshi biladi.

Umuman olganda, “Mehr” operatsiyalari orqali O‘zbekiston davlati va xalqining yuksak kechirimlilik, bag’rikenglik, olijanoblik kabi ezgu fazilatlari yana bir bor amaliy tasdig’ini topdi. Hayot yo’lida adashgan, nochorlik, afsus va nadomatlardan sillasi qurigan yana bir guruh ayollar va bolalar yurtga qaytarildi. O‘zbekiston o’z fuqarolarining huquq va manfaatlarini, ular qayerda bo’lishidan qat’i nazar, himoya qilishga qodirligiga xalqaro hamjamiyat yana bir bor guvoh bo’ldi. Ha, bunaqa mamlakat bilan faqat va faqat faxrlanish hamda unga munosib bo’lish kerak, xolos. Shukrki, tinchlik-osoyishtalik barqaror yurtga yashamoqdamiz. Shu sababli bizga Afg’oniston, Suriya va boshqa davlatlardagi vaziyat qo’rqinchli tushday ko’rinishi aniq. Urush

BIZ DUNYODAGI ENG TINCH, ENG OSOYISHTA VA INSON QADR-QIMMATI YUKSAK BAHOLANADIGAN MAMLAKATDA YASHAYAPMIZ. BU YURTNING ODAMLARI BAXT NIMA EKANINI JUDA YAXSHI BILADI. BUGUNI, ERTASI VA UNDA KEYINGI HAYOTI HAQIDA BEMALOL ORZULAR QILADI, KATTA REJALAR TUZADI, FARZANDLARI KAMOLINI KO’ZLAB ULUG’VOR ISHLARGA QO’L URADI. ENG MUHIMI, BULARNI MUTLAQO TABIIY JARAYON SIFATIDA QABUL QILADI. AFSUSKI, DUNYONING HAMMA DAVLATLARI HAQIDA HAM BUNDAY YORUG’ FIKRLARNI BILDIRSA OLMAYMIZ. MASALAN, SURIYA HAQIDA...

guvohlarining hikoyalari ham kishini shukronalikka chorlaydi.

Taniqli tojik shoirasi va yozuvchi Gulruxsor Safiyeva 1992-1997-yillardagi urush dahshatlarini boshidan kechirgan ayollar hikoyalari “Ayollar va urush” kitobida jamlagan. Panjlik Sadafning yolg’izgina qizchasi bo’lgan. Urushda ko’pchilik bilan solga o’tirib, daryodan Afg’onistonga qochgan. Ammo daryo o’rtasiga yetganda, otishma boshlanadi va barcha suvga cho’ka boshlaydi. Sadaf qandaydir butaga osilib qoladi, ammo qizchasi suvga g’arq bo’ladi. Qizaloq suvga cho’kar ekan, onasidan yordam so’raydi. Lekin Sadaf qo’lini qo’yib yuborsa, o’zi ham suvga cho’kishini anglaydi. Qizini qutqara olmaydi. “Bola jondan aziz, degan gaplar yolg’on ekan, — tan oladi Sadaf. — O’limga yuz tutgan chog’ingda o’z joning ko’zingga shirin ko’rinarkan”. Sadaf hamon gunoh hissi bilan yashaydi. O’zini kechirolmaydi”.

Bu hikoyadan chiqariladigan xulosa bitta: qaysi yurt qanday tinchlik va osoyishtalik hukm sursa, o’sha yerda taraqqiyot bo’ladi. Bizning erishayotgan yutuqlarimiz zamirida ham ana shu tinchlik-osoyishtalik yotadi. Agar istiqolning o’tgan 32 yiliga nazar tashlasak, poytaxtimiz, viloyatlar markazlari, shahar, qishloqlarimiz, hatto eng chekka hududlarda ham katta o’zgarishlar ro’y berganiga guvoh bo’lamiz. Yurtimizdagi xotirjamlik va barqarorlik tufayli xonadonlarda to’yu tomoshalar, bayram-u shodiyonalar bo’lmoqda. Bu ne’matlarga chin ma’noda shukrona qilish va ularning qadriga yetish kerak.

**Ogoh insongina o’z
kelajagiga aql bilan teran
nazar tashlaydi**

Aslida, beqarorliklarning kelib chiqishiga ko’p jihatdan ma’naviyat va yoshlar masalalariga loqaydlik, beparvolik bilan qarash, bu borada tegishli ma’naviy-ma’rifiy va amaliy ishlarning amalga oshirilmagani sabab bo’ladi. Shuningdek, yoshlarni o’z holiga tashlab qo’yish, otana, oila va jamiyat nazoratidan chetda qoldirish oqibatida yoshlar yovuz kuchlar nayranglariga aldab qolayotgani ham hayot haqiqati. Aholi orasida boy va kambag’allarning keskin tabaqalanib ketishi, ishsizlik masalasiga e’tiborsizlik ham muammoning asosiy sabablaridandir.


Endi tashqi kuchlar ta’siriga kelsak, ular mamlakatdagi tayyor yetilib turgan og’ir vaziyatga olov purkab, to’polonlarni paydo qilib, o’z maqsadlarini amalga oshirish uchun qulay vaqt kelgunga qadar payt poylab turmoqda. Ushbu man-

fur kuchlarning g’arazli maqsadlari juda ko’p. Masalan, g’alayonlar yuz berayotgan arab mamlakatlarining aksariyati tabiiy boyliklar, ayniqsa, energetika zaxirasi ko’p davlatlar ekan ayon bo’ladi. Tashqi kuchlar ana shu moddiy boyliklarni talon-toroj qilish maqsadida ushbu notinchliklarni keltirib chiqarayotgani kunday ravshan.

Barqarorlikni izdan chiqarish orqali bu mamlakatlar Afg’oniston kabi notinch hududga, kimlarningdir g’araz maqsadiga xizmat qiladigan maydonga aylantiriladi. Oqibatda bunday hududlar jinoyatchi guruhlarning uchun makon va yovuz maqsadlar yo’lida foydalanadigan joy vazifasini o’taydi. Shuningdek, osoyishtalikka putur yetishi natijasida aholi tinchligi buziladi, qurbonlar bo’ladi va mamlakatlar muammolar iskanjasida qoladi. Qo’shni davlatlar ham bunday vaziyatlardan zarar ko’radi. Bunday yovuz kuchlarning o’z qora maqsadlariga erishish borasidagi faoliyati turlicha bo’lsa-da, tutayotgan yo’l yoki qilayotgan ishlari bir xil — odamlarning tinch hayotini izdan chiqarish. Ayniqsa, ba’zi buzg’unchi guruhlarning geosiyosiy maqsadlariga erishish yo’lida qator itilof va ko’ngilsizliklarni keltirib chiqarmoqda.

Donolar tinchlik — sivilizatsiya ne’mati, urush esa uning ofati, deydi. Darhaqiqat, hozirgi kunlarda dunyo xalqlari uchun tinchlikni saqlab qolish, odamlarning yashash huquqini ta’minlashdan ham muhimroq vazifa yo’q ekanini tobora chuqurroq ayon bo’lmoqda. Tinchlik deb atalmish ulug’ ne’mat bo’lmas ekan, taraqqiyot ham, o’sish ham, farovon hayot ham bo’lmaydi. Asrlar davomida yuz bergan qonli urushlar tarixini tahlil etsak, ko’z oldimizda bag’oyat ayanchli manzara paydo bo’ladi. Eng achinarlisi, ana shunday urushlarda eng ko’p aziyat chekkanlar insoniyat kelajagi bo’lmish bolalar va ayollardir. Odatda himoyaga, yordamga yoki alohida g’amxo’rlikka muhtoj ana shu tabaqa vakillari hayotini tashvishlardan xoli etish, ular osmonini qora bulutlardan tozalash har doim ham muqaddas burch bo’lib kelgan.

UNICEF va qator xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar navqiron avlod turmushi farovonligini yuksaltirish, ular hayotini turli ofatlardan asrash, huquqlarini himoya qilishga qaratilgan sa’y-harakatlarni amalga oshirib kelmog’da. Jahon hamjamiyatining qashshoqlik va ochlikni tugatish, savodsizlikka barcha berish, qochqolar muammosini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlari, birinchi g’alada, ayollar va bolalarga g’amxo’rlik ifodasi, albatta. Zero, yuqorida tilga olingan illatlar, avvalo, ularning hayotini izdan chiqarmoqda.



So’nggi yarim asr mobaynida xalqaro gumanitar va inson huquqlari sohasida qator konvensiyalar qabul qilinganiga qaramay, himoyasiz bolalar va ayollarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo’lish, ularni zo’rlash, qiynash va o’ldirish, ak-sariyat hollarda yosh bolalarni urushga yollashdek og’ir illatlarga har qadamda duch kelmoqdamiz. Shu kunlarda ham dunyoning qator hududlarida sayyoramiz hayotiga xavf solayotgan mahalliy va etnik urushlar, milliy nizolar davom etayotgani afsuslanarli.

UNICEF ma’lumotlariga ko’ra, oxirgi o’n yilda yuz bergan harbiy to’qnashuvlarda voyaga yetmagan kamida 2 million bola qurbon bo’lgan, 10 milliondan ortig’i mayib-majruh bo’lgani yetmaganidek, ota-onasi va boshpanasidan ayrilgan. Yana millionlab bolalarning tufayli o’qishdan ketishga majbur bo’layotgani, har yili sayyoramiz bo’ylab 14 million go’dakning turli xastaliklaridan nobud bo’layotgani esa bu boradagi vaziyat naqadar ayanchli ekanini ko’rsatib turibdi.

Notinchlik, qurolli to’qnashuv, jabr-zulmdan tinka-madori qurigan xotin-qizlarning tinmayotgan ko’z yoshlari... Qorni to’yib-to’ymagan, ust-boshi yupun, yalangoyoq, tinchlik, baxt nimaligini his qilmaydigan, bunday buyuk ne’matdan mosuvo qilingan, ko’zlari bejo begunoh bolajonlarning yig’i-sig’isi, go’daklarning nolas... Vatagadolik, xorlik, urush uqubatlaridan butkul g’amga botgan qochqinlarning achchiq qismati... Teleekranlarda namoyish etilayotgan bunday manzaralar bag’ritosh insonning ham yuragini junbushga keltirishi tayin. Beixtiyor ko’zlarda yosh tomlarlari paydo bo’ladi. Begunoh ayollar, norasida bolalarning boshiga shunday tashvish, og’ir, unutilmas xorliklarni solgan urushga yana bir bor la’nat o’qiyis.

Shunday kezlarda O‘zbekistondek muqarrar tinchlik qaror topgan yurt-da yashayotganingiz, dorilamon kunlar shukuhidan bahramand bo’layotganingizga shukronalar aytasiz. Har kuni ertalab farzandlaringiz ko’zidagi quvonch, baxtli bolalik nashidalarini ko’rib, tinchlik, xotirjamlik naqadar buyuk ne’mat ekanini qalban his qilasis.

Inson ogoh bo’lsagina kelajagiga aql bilan teran nazar tashlaydi, kelishi yoki sodir bo’lishi mumkin bo’lgan fitna-fasod, xavf-xatarning oldini olish va bartaraf qilish harakatida bo’ladi.

Bas, shunday ekan, tinchlik uchun barchamiz mas’ulmiz. Tinchlikni saqlab qolish aslida oson ish emas. Buning uchun katta sa’y-harakat va xarajalar talab etiladi. Shunga ko’ra, biz ham tinch, osoyishta va farovon hayotning qadriga yetish, bu farovonlik, osuda turmushimizning barqarorligini ta’minlashga o’z hissamizni qo’shmoqimiz lozim. Hamisha hushyor va ogoh bo’laylik!



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI

ILMIY ASOSLANGAN SUG‘ORISH TIZIMI

Bugun ekilayotgan ko‘chatlar azim daraxtlarga aylanishi uchun kerak

G‘iyosjon RAHIMOV,
Irrigatsiya va suv
muammolari ilmiy-tadqiqot
instituti bosh ilmiy xodimi,
qishloq xo‘jaligi fanlari
doktori, professor,
1-darajali “Mehnat faxriysi”
ko‘krak nishoni
sohibi



Boshlanishi 1-betda

Ezgu loyihadan qanday maqsad ko‘zlangan?

Ma'lumki, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish belgilangan. Demak, 5 yilda 1 milliard tup daraxt ko‘chati va butalar ekiladi. Bunday keng ko‘lamli tashabbus orqali barcha davlat idoralari, korxonalar, ta’lim muassasalari hududida 440 dan ortiq yashil bog‘ tashkil etiladi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 11-oktabr kuni “Yashil makon” loyihasining kuzgi daraxt ekish mavsumini e’lon qildi. Yurtimizda ushbu harakat boshlanganiga esa 2 yil bo‘ldi. Shu davrda 1 ming 200 gektardan ortiq yashil bog‘ va jamoat parklari, 1 million gektardan ziyod yashil hudud va qoplamalar barpo etildi.

Yig‘ilishda 25-oktabrdan 1-dekabr-gacha, ya’ni 45 kun davom etadigan loyi-haning navbatdagi mavsumi doirasida mamlakatimiz bo‘yicha rejalashtirilgan 85 million manzarali daraxt ko‘chati va butalar ekilishi bo‘yicha bir qator vazifalar belgilab berildi.

Ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, bir gektar maydondagi bog‘ bir kecha-kun-duzda 200-275 kilogrammgacha karbonat angidrid gazini yutib, 180-215 kilogramm kislorod ajratadi. Bu miqdor o‘rtacha 500 kishini kun davomida kislorod bilan ta’minlash uchun yetarli bo‘ladi. Shuning uchun ham daraxtlar, bog‘lar, umuman, yashillikni o‘sha hududning “o‘pka”si deymiz. Navoiy, Olmaliq, Angren kabi sanoatlashgan shaharlar va viloyat markazlari, shu jumladan, poytaxtimizda Aylant daraxtini ekish tavsiya qilinadi. Negaki, sanoatlashgan va yirik shaharlarda transport vositalari ko‘p va ular zaharli gazlarni keng tarqatadi. Aylant daraxti esa aynan zaharli gazlarni yutib, havoni tozalaydi. Uni sassiq daraxt yoki Xitoy shumtoli, deb ham atashadi. Daraxtning o‘ziga xos qulay jihatlaridan yana biri, ko‘p suv va parvarish talab qilmaydi.

Unutmashlik kerakki, global iqlim o‘zgarishlari salbiy oqibatlarini yumshatish, chang-to‘zonlar ko‘tarilishining oldini olish, umuman, nafas olayotgan havomizni tozalash kabi ezgu maqsadlarga qaratilgan “Yashil makon” loyihasi faqat ko‘chat ekishdan iborat emas. Binobarin, hozir ekilayotgan nihollar azim daraxtlarga aylanib, tabiatimizning jonli qalqoniga aylanishi uchun, xalqimiz ta’biri bilan aytganda, ancha-muncha “qovun pishig‘i” bor. Chunki yiliga 200 millioning o‘rniga 2 milliard tup ko‘chat eksangiz ham, unga qarov bo‘lmasa, ko‘chatlar ildiz o‘tib ketishiga ilmiy yondashilmasa, kelasi yil cho‘pga aylanadi, ya’ni ko‘zlangan maqsadimizga aslo erisha olmaymiz.



Kezi kelganda ta’kidlash o‘rinliki, barcha hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos daraxtlarni tanlab ekish, o‘sib rivojlanishi bo‘yicha bajariladigan kompleks agrotekhnologiyalarni bajarish lozim. Aytaylik, sizot suvlari sathi hamda sho‘rlanganlik darajasi yuqori hududlarga ildizi va barglaridan bug‘lantirish vazifasini bajaruvchi daraxtlarni ekish maqsadga muvofiq. Negaki, ana shunday daraxtlardan, masalan, 100 tup tol daraxti ekilsa, 91,9 ming metr kub, shuncha terak ekilganda esa, 82,9 ming metr kub tuz miqdori yuqori sho‘rlangan suvlarni bug‘lantirib, sizot suvlari sathini pasaytirish, o‘z navbatida, sho‘rlanish darajasini kamaytirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Bu jihat shunisi bilan ham ahamiyatliki, mavsumiy zax bosgan, sizot suvlar yaqin, sho‘rlangan yerlarda tuproq — grunt namligi oshgani sababli bino va inshootlarning zilzilabardoshligi kamayadi. Shuning uchun ham bunday hududlarda “Yashil makon” loyihasi doirasida bog‘lar barpo etish, ayniqsa, ildizi va barglaridan bug‘lantirish xususiyatiga ega daraxtlarni o‘stirish “biodrenaj” usulini qo‘llash lozim.

“Yashil makon” platformasi amalda

“Yashil makon” umummilliy loyihasi kuzgi mavsumini tashkil etish masalalari bo‘yicha belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash har birimizning burchimizdir.



O‘ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI ULOMALAR KENGASHINING “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI QO‘LLAB-QUVVATLASH, SHU ASOSDA HUDUDLARNI OBODONLASHTIRISH, KO‘CHAT VA GULLAR EKISHNI TARG‘IB ETISHGA QARATILGAN BAYONOTIDA “YASHILLIK OLAMI BU — TOZA HAVO, SOG‘LOM HAYOT, UZOQ UMR VA SANOAT RIVOJIDIR” DEYILADI. HAR BIR INSONNI UNGA ATO ETILGAN NE‘MAT — TABIATNI AVAYLASH, ATROF-MUHIITNI OZODA SAQLASH, MUHOFAZA QILISHGA CHAQIRADI.

Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlarida ekilgan ko‘chatlar holatini elektron tizim orqali nazorat qilish boshlandi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan arbaris, dendrolog, tuproqshunos, agronom olimlardan iborat ekspert guruhi tashkil qilindi. Bunga qo‘shimcha ravishda har bir hududda amaliy yordam va monitoring guruhlari tuzildi.

Vazirlik tahlil markazida loyiha doirasida ekilayotgan ko‘chatlar holati onlayn rejimda monitoring qilib boriladi.

“Yashil makon” platformasida tuman, viloyat shtablari ekilgan ko‘chatlarning turi, navi, qaysi subyektk ekkani, qayerga ekilgani va parvarishini tahlil qilib boradi. Demak, har bir ko‘chatning egasi, mas’ullari bor. Biriktirilgan mas’ullar ekilgan ko‘chatlarni yaroq yozib, azim daraxtga aylanguncha kafolatli ish olib boradi.

Bugungi kunga qadar ekilgan 91 million tupdan ortiq daraxt va buta ko‘chatlarining 62 millioni “Yashil makon” platformasiga kiritildi va bu ishlar tizimli davom ettirilmoqda.

Yashillik olami, bu — sog‘lom hayot

O‘zbekiston musulmonlari idorasi Ulamolar kengashining “Yashil makon” umummilliy loyihasini qo‘llab-quvvatlash, shu asosda hududlarni obodonlashtirish, ko‘chat va gullar ekishni targ‘ib etishga qaratilgan bayonotida “Yashillik olami, bu — toza havo, sog‘lom hayot, uzoq umr va sanoat rivojidir” deyiladi. Har bir insonni unga ato etilgan ne‘mat — tabiatni avaylash, atrof-muhitni ozoda saqlash, muhofaza qilishga chaqiradi.



Suvchilar bog‘i barpo etilmoqda

Ko‘chat ekib, bog‘ yaratish azaldan savobli ish hisoblangan. Mevasidan odamlar bahramand bo‘lgan, manzarali daraxtlardan dili yorishgan, yog‘ochidan qurilishda foydalanilgan.

Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi tog‘li G‘ijol qishlog‘idan Suv xo‘jaligi vazirligiga 42 gektar yer maydoni ajratilgan. Suvchilar bu yerda 21,5 ming tup bodom ko‘chati ekib, “Suvchilar bog‘i” bunyod etishni boshlab yubordi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan hasharda vazirlik markaziy apparati, tizim tashkilotlari bilan bir qatorda, Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti olim va mutaxassislari ham faol qatnashdi.

Albatta, tog‘oldi hududi yoki lalmi joyda daraxt o‘stirishning o‘zi bo‘lmaydi. Suvchilar buning hisobini olgan. Ya’ni pastdan oqib o‘tuvchi soydan nasos orqali suv chiqarilib, hovuz quriladi va ko‘chatlarni tomchilatib sug‘orish yo‘lga qo‘yiladi. Shu bilan birga, qator oralariga to‘qsonbosti ekinlar, bog‘ atrofiga terak ko‘chatlari ekiladi.

Daraxtni suvga yaqin joyga ekishni istaymiz. Chunki suvsiz ko‘chat unmaydi. Suv xo‘jaligi tizimida esa daraxt ko‘kartinish uchun imkoniyatlar bisyor. Barcha hududlarda suv xo‘jaligi tashkilotlari tasarrufidagi kanal,

ariq va zovurlar yoqalari, himoya mintaqalarida ko‘chat ekishga sharoit bor. Yana bir jihatni e’tiborga olish kerak. Suvchilar azaldan suv bo‘ylariga ko‘chat ekib kelgan. Buning uchun ular ko‘chatni o‘zlari ko‘paytirgan. Deyarli barcha suv xo‘jaligi tashkilotlarida ko‘chatxonalar bor. Shu sababli loyiha doirasida suvchilar ichki imkoniyatni ishga solmoqda.

Yangi ekilgan daraxtlarni sug‘orish tizimi

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ko‘chatni ekib qo‘yish bilan ish bitmaydi. Umid bilan yerga qadalgan har bir nihol avj olib o‘sishi, daraxtga aylanishi uchun unga doimiy parvarish, eng muhimi, sug‘orish tizimi kerak.

Prezidentimiz shu yil 11-avgust kuni “Yashil makon” umummilliy loyihasi ishlari joylarda o‘z holiga tashlab qo‘yilganini tanqid qilib, ko‘chatlar sug‘orish tizimi yo‘q hududlarga ekilgani sababli 10 milliondan ortiq yangi ekilgan nihol nobud bo‘lganini achinib gapirdi. Daraxt-buta o‘simliklari ildiz tizimi atrofiga doira shlangalar yordamida sug‘orish usuli mavjud. Bunday usul ko‘chatlarga sarflanadigan suv miqdori hamda muddatini bir necha marotaba qisqartirishga imkon yaratadi. O‘simliklarni avtomatik sug‘orishda doira shaklidagi diametri 1,5 millimetrl shlangalardan foydalaniladi. Tuproqni namlantirish uchun sarflanadigan suv miqdori o‘simlik ildizining chuqurligiga bog‘liq. Bunda yosh ko‘chatlarni sug‘orish uchun ko‘chat aylanadidagi har bir kvadrat metrga 40 litr, 5 yoshdan katta ko‘chatlarga 60 litr, 10 yoshdan kattalariga esa 40 litr suv sarflanadi.



“TOSHKENT VILOYATI BO‘STONLIQ TUMANIDAGI TOG‘LI G‘IJOL QISHLOG‘IDAN SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGIGA 42 GEKTAR YER MAYDONI AJRATILGAN. SUVCHILAR BU YERDA 21,5 MING TUP BODOM KO‘CHATI EKIB, “SUVCHILAR BOG‘I” BUNYOD ETISHNI BOSHLAB YUBORDI. SHU MUNOSABAT BILAN TASHKIL ETILGAN HASHARDA VAZIRLIK MARKAZII APPARATI, TIZIM TASHKILOTLARI BILAN BIR QATORDA, IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI OLIM VA MUTAXASSISLARI HAM FAOL QATNASHDI.

Ko‘chatlarni sug‘orish davomiyliyi va suv sarfi miqdori tuproqning mexanik tarkibiga ham bog‘liq. Agar tuproq qumli bo‘lsa, har bir sug‘orishda suv miqdorini kamaytirib, tez-tez sug‘orish talab etiladi.

Yangi ekilgan ko‘chatlarni sug‘orish davomiyliyi va miqdori ularni parvarishlash va shu asosda saqlab qolish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

▶ bo‘yi 3 metrdan yuqori ko‘chatlar ekilganda, bir sotix yer maydoniga 85 litr suv sarflanib, 5-7 kun davomida sug‘oriladi. Qo‘lda bir sotix yerni sug‘orish vaqti 30 daqiqa va avtomat usulda 6 daqiqani tashkil qiladi;

▶ bo‘yi 1 metrgacha bo‘lgan butalar ekilganda, har bir sotix yerga 2 litr suv sarflanib, 1-2 kun davomida sug‘oriladi. Bu qo‘lda 15 daqiqa, avtomat usulda esa 3 daqiqani tashkil qiladi;

▶ bo‘yi 1,5 metrgacha bo‘lgan butalar uchun esa sotixiga 6 litr suv sarflanib, 1-2 kun sug‘oriladi.

Ba’zida suvsizlik tufayli yerdan nam qochib, ekilgan daraxtlarning nobud bo‘lishiga guvoh bo‘lamiz. Dehqonchilikda gidrogel nomli vosita bor. U shu kabi muammolarning oldini olishga yordam berishi aniqlangan. Hozirgi vaqtda gidrogel va uning foydali xususiyatlari haqida to‘liq ma’lumotlar kam. Gidrogel — o‘ziga nam tortuvchi, yuqori bo‘kuvchanlik xususiyatiga ega sintetik polimer vosita hisoblanadi. U tuproq tarkibida ko‘p miqdordagi namlikni uzoq vaqt davomida saqlash imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda olimlarimiz tomonidan respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga mos gidrogellarni aynan daraxt va butalarni ekishda to‘liq foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilmoqda.

Loyiha bajarilishida ilm-fan va amaliyot uzviyligi

Davlatimiz rahbari “Yashil makon” umummilliy loyihasi sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, tuproqshunoslik va o‘rmonchilik yo‘nalishidagi va boshqa institutlar olim va mutaxassislari ishtirokida Respublika shtabi tuzib, qachon, qayerda va qancha miqdorda ko‘chatlarni hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos ekilishini ta’minlash, sug‘orish tizimini yo‘lga qo‘yish, ko‘chatlarni to‘g‘ri parvarish qilish kabi vazifalarni belgilab bergandi.

Ma’lumki, Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Irrigatsiya va suv muammolari

ilmiy-tadqiqot instituti drenaj qurilmalari, suv muammolari, sug‘orma dehqonchilik, melioratsiya va tuproq zaxlanishi, sho‘rlanishi kabi bir qator masalalarni o‘rganib, bugungi tuproq-iqlim sharoitida qurg‘ochilikning oldini olishda hamda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishda ilmiy asoslangan xulosalar, tavsiyanoma va qo‘llanmalar berish bo‘yicha yagona ilmiy maskan hisoblanadi.

Bugungi kunda institutimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga qatorida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ekilayotgan manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari uchun ilmiy asoslangan sug‘orish tizimini ishlab chiqish bo‘yicha loyihaviy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Institut olim va mutaxassislari tomonidan hududlarda ekilayotgan daraxt ko‘chatlari, butalarni sug‘orishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish va joriy qilish bo‘yicha tayyorlangan ushbu ilmiy-amaliy loyiha aynan yuqoridagi muammolar yechimiga qaratilgan.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asosan, eng birinchi navbatda, hududlarning iqlim sharoitiga mos, yerlarning sho‘rlanish, boshqarilish darajasini pasaytirishga moyil daraxt va butalar tanlab olinib, ularni ekish, ko‘paytirish hamda o‘sib rivojlanishini ta’minlovchi ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Elektr energiyasi va suv resurslari taqchil hududlarda daraxt va butalarni sug‘orishda tomchilatib sug‘orish tizimi joriy qilinadi. Bunday joylardagi magistral yo‘l chetlarida quyosh panellaridan foydalanib, artezian quduqlarni ishga tushirish, tomchilatib sug‘orish tizimini takomillashtirib, onlayn tizimda boshqarilishini ta’minlash bo‘yicha tavsiyanomalar tayyorlanadi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi bajarilishini ta’minlashda faoliyat ko‘rsatayotgan qator vazirlik va idoralarning mutaxassislari bilan birgalikda ushbu ilmiy tadqiqot ishlari maqsadli loyiha yo‘nalishida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Toshkent davlat agrar universiteti va Xalqaro qishloq xo‘jalik universiteti olim va mutaxassislari bilan hamkorlikda manzarali daraxt va butalarni sug‘orishda ilg‘or, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish ham zarur. Bu masalada faqat bugun emas, yaqin va uzoq kelajakni o‘ylab ish tutmasak, ko‘zlangan maqsadimizga erisha olmaymiz.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ayniqsa, daraxt ekishga qaratilgan umummilliy loyihani amalga oshirish masalasi davlat siyosat darajasiga ko‘tarilgani bejiz emas. Aytish joizki, mamlakatimiz va butun dunyodagi vaziyat ekologik muammolarga mana shunday tizimli yondashuvni taqozo etmoqda.



YANGICHA YONDASHUVLAR

LOYIHALAR FABRIKASI

TADBIRKOR YOSHLARNING FAOLIYATINI TEZDA YO‘LGA QO‘YIB, EKSPORTNI RAG‘BATLANTIRISHGA IMKON YARATADI

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning 2021-yil 21-aprelda-gi “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo‘l-lab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”-gi qarorida Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quv-vatlash jamg‘armasi mablag‘lari ustuvor zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish hamda xizmat ko‘rsatish sohasi loyi-halarini moliyalashtirishga yo‘natilishi belgilangan. Mazkur hududlardan bino xarid qilish, uskunalar olib kelish va ish-lab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun ham jamg‘arma tomonidan imtiyozli kreditlar ajratiladi. Bunday imkoniyat tadbirkor yoshlarning tezda oyoqqa turib olishi va eksportni ko‘zlab ish tutishiga imkoniyat yaratadi.

Katta imkoniyat — katta mas‘uliyat

Davlatimiz rahbari joriy yil 16-17-no-yabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashri-fi chog‘ida mazkur sanoat zonasida ham bo‘lib, hududda joylashtirilgan korxonalar faoliyati bilan tanishdi, u yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ko‘zdan ke-chirdi.

— Prezidentimiz sanoat zonalarini viloyatning har bir tumanida ochish, ma-hallalarda hunarmandlik, kasanachilikni kengaytirish zarurligini ta’kidladi, — deydi B.Ortiqov. — Yoshlar tadbirkorligini rivojlan-tirish uchun 50 million dollar ajratish bo‘yi-cha taklif ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi. Bu katta imkoniyat, shu bilan birga, katta mas‘uliyat hamdir. Yoshlar sanoat va tad-birkorlik zonasidagi bino-inshootlarni sotib olish, uskunalar olib kelish va ishlab chiqa-rishni boshlash uchun yosh tadbirkorlarga jamg‘armamizdan 15 million dollarlik mab-lag‘ tijorat banklari orqali ajratiladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda 52 ta kichik va yoshlar sanoat zonasi bor. Ularda 446 ta loyiha amalga oshirilmoq-da. Yoshlar sanoat zonalarida 221 loyiha joylashtirilgan bo‘lib, 1250 yangi ish o‘rni ochish rejalashtirilgan.

Bunday hududlarda yoshlarga o‘z in-novatsion ishlanmalarini ishlab chiqarish



jarayoniga joriy etish va natijasini tijorat-lashtirish, yirik sanoat korxonalarini bilan kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish borasi-da amaliy yordam ko‘rsatiladi. Qolaversa, band bo‘lmagan, shu jumladan, “Yoshlar daftari”ga kiritilganlar ish bilan ta’mi-na-nib, ijtimoiy-iqtisodiy faolligi oshiriladi. Mana shunday imkoniyatlar, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, sanoat zonal-a-rini tumanlar uchun tayyor “loyihalar fab-rikasi”ga aylantiradi. Sanoat zonasida tashabbuskorlar mahsulotini ichki bozorga yetkazib berish bilan birga, eksportga ham yo‘naltiryapti.

“Imtiyozlar bizni rag‘batlantirdi”

— Har bir soha yoki tarmoq rivojini bozor talabi, iste’molchi ehtiyoji belgi-laydi, — deydi “Ibragimov oltin baliqlari” oilaviy korxonasi rahbari Bekmurod Ibragimov. — Elektrotexnika sanoatini eng zarur va tez rivojlanayotgan soha-lar qatoriga qo‘shish mumkin. Boisi, biz har kuni foydalanadigan maishiy tex-nika, yirik sanoat ishlanmalariga talab soat sayin o‘sib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, bozorlarimizni shu turdagi sifatlil va arzon milliy mahsulotlar bilan to‘yintirishga imkon yaratadi. “Tinchlik” yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi

hududiga quyosh panellari va elektr taq-simlagich yig‘ish loyihasini joylashtirdik. Uning qiymati 4,4 milliard so‘m. Yillik ishlab chiqarish hajmi 2,6 milliard so‘m-ni tashkil qiladi. Avvaliga katta loyihaga qo‘l urishga qo‘rqdik. Ammo imtiyozlar bizni rag‘batlantirdi.

Sanoat zonasiga joylashtirilgan loyi-halarning aksariyati qurilish materiallari va mebel ishlab chiqarishni ko‘zda tutadi. Shuningdek, kimyo va qog‘oz, farmatsev-tika, oziq-ovqat, to‘qimachilik sanoatiga tegishli loyihalar ham shakllantirilmoqda.

— Bugun barcha tuman va shahar-la-da keng ko‘lamdagi qurilish-bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda, — deydi “Qo‘qon Termiz vents” MCHJ rahbari Asadbek Mansurov. — Sifatli qurilish materiallari ishlab chiqarish, turlarini kengaytirish, ichki bozorni import o‘rini bosuvchi va raqobat-bardosh qurilish materiallari bilan to‘ldirish tadbirkorlar oldida turgan muhim vazifa. Bu turdagi ishlab chiqarishni mahalliy-lashti-rish, avvalo, aholi uchun katta foyda, boisi, mahsulot narxi arzonlashadi. Qolaversa, bu davlat iqtisodiyotiga katta foyda keltirishi bilan ham ahamiyatli. Hududdagi maxsus lotga metallga ishlov berish loyihasini joy-lashtirdik. Bu jarayonda bizga bank krediti ko‘mak bo‘ldi. Yillik ishlab chiqarish quvvati 0,8 milliard so‘m bo‘lgan loyiha doirasida yigirmadan ziyod ish o‘rni yaratiladi.

Istiqbolli loyihalarni joylashtirish birinchi galdagi vazifa

Ma’lumotlarga ko‘ra, sohani qo‘l-lab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar boisi, qisqa vaqt ichida mamlakatimizda 210 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zo-nasi tashkil etildi. Ularda 2272 ta inves-titsiya loyihasi amalga oshirilib, qiymati 2,1 trillion so‘mlik 911 loyiha doirasida 21 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratil-gani bu boradagi sa’y-harakatlarning qay darajada samarali va muhim ekani-ni anglatadi. Bunday majmualar joylar-dagi bo‘sh turgan, foydalanilmayotgan bino-inshootlar yoki yer uchastkalari negizida barpo etilib, eksportbop, import o‘rnini bosuvchi istiqbolli loyihalarni joy-lashtirish birinchi galdagi vazifa sanala-di.

Mutasaddilarning ta’kidlashicha, loyi-ha Yoshlar sanoat zonalarini hududida joy-lashtirilishi uchun qator talablarga javob berishi lozim. Xususan, patent asosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni ta’mi-nlovchi startap investitsiya loyihalari, inno-vation mahsulotlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan loyihalar bu borada ustunlik-ka ega bo‘ladi. Shuningdek, import o‘rni-ni bosadigan va eksportga yo‘naltirilgan raqobatbardosh mahalliy sanoat mahsu-lotlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalariga ham talab yuqori. Yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining kami-da 70 foizi yoshlar uchun mo‘ljallangan bo‘lishi, bandligi ta’mi-nlanmagan, “Yoshlar daftari”ga kiritilganlarni ish bilan ta’mi-nlashni nazarda tutuvchi investitsiya lo-yihalari bo‘lishi ham eng dastlabki talablar sirasiga kiradi.

Soha rivoji uchun imkoniyatlar yetarli. Ammo bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ham katta bilim va salohiyat talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini biznes olamiga en-digina kirib kelayotgan tadbirkorlarning loyihalarni ro‘yobga chiqarishda muhim vosita bo‘lishi shubhasiz.

Feruza JO‘RAYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YUKSALISH PALLASI

TA’TILDA HAM O‘QIGAN YOSHLAR Buyuk Britaniyaga ta’lim sayohatiga jo‘nab ketdi

Jahon hamjamiyatiga integratsiya jarayonida, dunyo mehnat bozoriga dadil va faol kirib borilayotgan pallada xorijiy tillar bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishni davrning o‘zi taqozo etayotir. Shu bois, bugungi kunda ona tili qatorida bir necha chet tillarni bilish zarurati yuzaga kelayotgani tabiiy hol.

Xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosa-tining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlan-tirishga qaratilgan ushbu e’tibor zamirida dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh, har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlash-dek ezuq maqsad fiodasini topgan. Prezi-dent sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovi tash-kil etilgani ana shu ezuq maqsad ro‘yobi yo‘lidagi xayrli tadbirlardan biri.

Joriy yilda tanlovning tuman (shahar) bosqichida 34 ming 375 o‘quvchi (6 ming 885 ta maktabdan) ishtirok etgan. Qat-nashchilarning 32 ming 505 nafari ingliz, 1015 nafari nemis, 905 nafari fransuz tili bo‘yicha bilim va ko‘nikmasini namoyon etdi.

Birinchi bosqich yakuniga ko‘ra, 208 ta maktab tanlovning ikkinchi bosqichiga tavsiya etildi. Bellashuvlarda xorijiy tilni bilish darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar umumta’lim maktablarining 7-9-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan. Test topshiriqlari ishtirokchilarning mu-loqot ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qildi.

Musobaqaning respublika bosqichi-da har bir hududdan bittadan, jami 14 maktab va 70 o‘quvchi ishtirok etdi. Ushbu bosqichda Buyuk Britaniyaning “Cambridge Assessment English” tash-kilotiga tegishli “Linguaskill” xalqaro tes-ti vositasida ishtirokchilarning tinglab tushunish, yozish, so‘zlashish va o‘qish ko‘nikmalari sinovdan o‘tkazildi. Kuni ke-cha ishtirokchi 70 o‘quvchi 14 ustozlari bi-lan Buyuk Britaniyaga ta’lim sayohatiga jo‘nab ketdi.

— “Yangi O‘zbekiston maktab osto-nasidan boshlanadi” konseptual g‘oyasini amalga tatbiq etish uchun barcha norma-tiv-huquqiy hujjatlar va kerakli shart-sha-roitlar yaratildi, — deydi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri maslahatchisi Aziz

etdi. Albatta, bu juda hayajonli va faxr-li. O‘quvchilar kamolini ko‘rish, mehnati zoye ketmaganiga ishonch hosil qilish kishiga iftixor bag‘ishlaydi. Ikki o‘quvchim IELTS sinovidan 7,5 ball olgan. Qolgan-lari ham bilimli, zakovatli. Doim ingliz tilida gapiradi, o‘z ustida muntazam ish-laydi. Qo‘shimcha adabiyotlar o‘qiydi, o‘rganadi. Yozda, ta’til paytida ham dam olmadik va ko‘lga kiritgan natijamiz bizga Buyuk Britaniyaga sayohat qilish imkoni-ni berdi.

Xorijiy tillarni o‘rganish — bugungi taraqqiyotning bosh talablaridan. Glo-ballashuv zamonida kamida ikkita til bilish zarur. Bugun yoshlarimiz ona tilini yuksak darajada bilishi barobarida dunyoning rivojlangan davlatlari tilini o‘rganishi, o‘sha yerdagi ma’lumot, yangilik, ilmiy ax-borotlardan kengroq foydalanishi lozim.

— “Yozish ko‘nikmasi bo‘yicha eng yaxshi o‘quvchi” nominatsiyasida g‘olib bo‘ldim. Bunga osonlikcha erishmadim. Juda qattiq mehnat qildik va yakunda ana shu mehnatimizning natijasini ko‘r-dik. Bundan juda xursandman, — deydi Buxoro tumanidagi 1-maktab o‘quvchi-si Shahriyor Sulaymonov. — Erishgan muvaffaqiyatim ortida, albatta, katta mehnat yotibdi. Muntazam insho yoz-dik. Mashqlarga e’tibor qaratdik. Insho yozishni mashq qilganimiz katta yordam berdi. Raqobatchilarning juda kuchli edi. Ular ham tayyorgarlik ko‘rgan. Biz imti-hon muhitidan tashqarida do‘st edik. Imti-hon zaliga kirgandan keyin raqobatchiga aylandik. Bu sog‘lom raqobat hamma-mizning o‘shimizga yordam beradi, deb o‘ylayman. Til o‘rganish odamning dun-yoqarashini kengaytiradi. Ayniqsa, xalqa-ro tillarni o‘rganish bilan ko‘plab axborot-ga yo‘l topa olamiz. Chunki internetdagi ma’lumotlarning yarmidan ko‘pi ingliz va rus tillarida.



bek Turdiyev. — “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” ana shun-day ezuq sa’y-harakatlarga misoldir. Har yili mana shu tanlov ishtirokchilari Buyuk Britaniyaga ta’lim sayohatiga yuboriladi. Ular xorijlik tengdoshlari bilan shuabta-lashadi, u yerdagi ta’lim tizimi bilan tani-shadi. Bu an’ana bizga ajdodlarimizdan meros. Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk allomalar ham o‘z davrida yurt kezzgan, ilm o‘rgangan. Ja-didlar xorijiy tillarni o‘rganishning ahami-yati katta ekanini ta’kidlab, shogirdlarini til o‘rganishga, dunyo ko‘rishga, jahon ilm-u ma’rifatini o‘zlashtirishga undagan. Dast-labki Renessanslarga poydevor bo‘lgan ushbu qadriyat bugun Uchinchi Renes-sans poydevori qurilayotgan O‘zbekis-tonda davom etyapti.

“Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining yakuniy bosqichi natijalariga ko‘ra, Namangan shahridagi 7-maktab jamoasi 1-o‘rinni egalladi va 500 million so‘m bilan taqdir-landi. Yashnobod tumanidagi 145-mak-tab jamoasiga 2-o‘rin va 400 million so‘m nasib etdi. Buxoro tumanidagi 1-maktab jamoasi 3-o‘rin hamda 300 million so‘m-ga munosib topildi.

— Albatta, birinchi o‘rinni egal-lash oson emas, — deydi Namangan shahridagi 7-maktabning ingliz tili o‘qituv-chisi Saodatxon Abdullayeva. — O‘tgan yili ham shu tanlovda qatnashgan edik. Respublika bosqichida omad kulib boq-magandi. Yiqilgan kurashga to‘ymas, deganlaridek, bir yil qattiq tayyorgar-lik ko‘rdik. Ta’til vaqtida ham o‘qishdan bosh ko‘tarmadik. Bu o‘ziga yarasha ma-shaqqat edi. O‘qish, yozish, gapirish, tan-qidiy fikrlash ko‘nikmalari bo‘yicha qattiq ishladik. Nihoyat, bu yil g‘oliblik nasib

Respublika bosqichida ishtirok etgan 70 o‘quvchi va 14 o‘qituvchi bir hafta davomida Buyuk Britaniyada ta’lim sayo-hatida bo‘ladi. Ular ingliz ta’lim jarayoni, jumladan, “Ardmor” til o‘qitish maktabi, Kembriji, Oksford universitetlari faoliyati bilan yaqindan tanishadi, Kembriji, Lon-don, Vindzor, Oksford shaharlari, Tem-zha daryosi bo‘ylab sayohat qiladi. Ingliz tengdoshlari bilan o‘tkaziladigan turli uchrashuvlar, Buyuk Britaniya madaniya-ti va tarixi bilan bog‘liq tadbirlarda ishtirok etadi.

— London shahriga yo‘l olarkanmiz, hissiyotimiz so‘z bilan ifodalab berolmay-man, — deydi Jizzax shahridagi 1-mak-tabning ingliz tili o‘qituvchisi Madina Masharipova. — Buyuk Britaniya ta’lim tizimi, madaniyati bilan tanishamiz. Shu bilan birga, mamlakatimiz tarixi, buguni, ayni paytda ta’limga berilayotgan e’tibor, yoshlarimiz salohiyati va erishayotgan yutuqlari haqida ularga so‘zlab bera-miz. O‘zbekistonga qaytgach, bilimimizni boshqalar bilan bo‘lishishga harakat qilamiz.

Bugun chet tillarda erkin so‘zlasha-yotgan, fikrini bayon etayotgan yoshlarni ko‘rib Avaz O‘tarning “Har tilni biluv emdi bani odama jondir”, degan misralari yod-ga tushadi. “Til bilan — el biladi”, deydi dono xalqimiz. Yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqishi va itilishi, bu bora-da erishayotgan muvaffaqiyati zamirida yurtimizda yaratilgan shart-sharoit katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugun qanot yozib, eng chekka qishloqlargacha ye-tib borgan tanlov hayajoni ertaga jahon miqyosida bo‘ylashadigan kadrlarning kamol topishiga xizmat qilishi muqarrar.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TADQIQOT

NEYROPSIXOLINGVISTIKA: BOLALAR NUTQI, O‘QISHI VA YOZISHIDAGI MUAMMOLAR BARTARAF ETILADI



Zuhro AKBAROVA,
filologiya fanlari doktori,
loyiha rahbari

Neypsixolingvistika deb nomlanadi-gan ilmiy-amaliy yo‘nalish til va miya-ning qanday bog‘langanini tadqiq etadi, nevrologiya usullaridan va lingvistik test-lardan foydalanib tashxislash asosida mi-yaning turli patologiyalari, nutqning miya shikastlanishi natijasida shakllangan buzi-lishi bilan bog‘liq muammolar va umumiy kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi.

Kichik yoshdagi bolalar o‘qish va o‘r-ganishidagi nutq patologiyasi, disleksiya (o‘qish jarayonining qisman o‘zgacharoq tarzda buzilish holatlari), disgrafiya (yozuv jarayonining psixofiziologik qurilishi bilan bog‘liq buzilishi) kabi muammolar borasi-da shu kunga qadar respublikamizda alo-hida ilmiy tadqiqot ishlari qilinmagan. Hol-buki, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar-niing yoshiga nisbatan kognitiv rivojlanish-dan ortda qolish holatlari ko‘p uchraydi va bu kabi muammolar neyrolingvistikaning diqqat markazida turadi.



Farg‘ona davlat universitetining “O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim” loyihasi kichik yoshdagi bolalarda hissiy, aqliy va nutqiy rivojlanishdagi notekisliklarni aniqlash, bartaraf etish masalasini tadqiq etish va amaliy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Tadqiqot doirasida o‘tkazilayotgan tajribalar bolalardagi neyrorang-baranglik doimiy kuzatish va tahlillarga muhtoj ekanini ko‘rsatmoqda.

Loyihadan kutilayotgan natijalar maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ota-onalar, izlanuvchilar, tarbiyachilar, maktab o‘qituvchilaridan iborat ming-lab iste’molchilar uchun zarur. Bu yerda “UzNeuroLingv” ilmiy-tadqiqot raqamli platformasi yaratiladi. Mazkur platfor-mada bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, inklyuziv ta’lim yangiliklari, neypsixolingvistik tashxislashga doir statistik ma’lumotlar kabi foyda-li resurslar aks ettiriladi. Shuningdek, platformaga joylangan lingvistik testlar asosida respondent bolalardagi nutqiy nuqsonlarni tashxislash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ishtirokchilarni onlayn tad-qiqotga jalb etish hamda bolalarda ku-zatilgan yengil buzilishlar bo‘yicha ota-onalarga maslahat berish, o‘zgarishlar

dinamikasini muntazam nazorat qilishga imkoniyat yaratadi.

Loyiha doirasida kuzatuvga olingan bolalardagi hissiy, aqliy holatlar va ular-niing nutqiga oid o‘zgarishlar, ota-onalar nazoratida bajarilishi zarur bo‘lgan top-shiriq va amaliy mashqlar ham aynan platformaga joylanadi. Onlayn foydalanuv-chilarning fikr va takliflari alohida o‘r-ganiladi, xulosalar umumlashtirib boriladi.

“UzNeuroLingv” ilmiy-tadqiqot marka-zi faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali bosh-lang‘ich sinflarda ta’lim oluvchi o‘quvchi-larda nuqsonsiz nutqiy kompetensiyani shakllantirish, o‘qish va yozish ko‘nik-malarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq muam-molarni aniqlash va bartaraf etish hamda milliy neypsixolingvistik tashxislash metodikasini yaratish kabi muhim va-zifalar hal etilishi ko‘zda tutilmoqda. Plat-

formaga yuklangan topshiriqlar darsdan tashqari vaqtlarda mavjud muammolar-ni bartaraf etishda qo‘l keladi. Nutqida nuqsoni bor, o‘qish va yozishda muammo-ga duch kelayotgan bolalar uchun maxsus dasturlar — lingvistik testlar ishlab chiqila-di. Ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish orqa-li nazariy natijalar olinadi, ishlab chiqilgan lingvistik testlar va amaliy dasturlar tijorat-lashtiriladi.

Ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati davomi-da neyrolingvistikaning nazariy va amaliy masalalari ko‘rib chiqiladi. Bundan tash-qari, neyrolingvistik jarayonlarni kuzatish doirasida turli yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan aqliy og‘ish holatlari bilan bog‘liq ma’lumotlar statistikasi shakllantiriladi. “Disleksiya va disgrafiya”ga neypsixolingvistik yondashuv” o‘quv kursi dasturi ishlab chiqiladi va bakalavriat talabalarini tayyorlash tizimiga kiritiladi.

Lingvistik, nefrofiziologik va psixo-logik kabi uch bosqichda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bolalarda aniqlan-gan miya faollashuvi va nutq buzilishi muammolarini bartaraf etish uchun nutq terapiyasi metodikasi ishlab chiqiladi. Ilmiy izlanishlar va kuzatishlar natijasi sifatida “Neypsixolingvistik tashxis-lash amaliyoti” nomli metodik qo‘llanma yaratilishi rejalashtirilgan.

Bugunga qadar bu kabi psixofiziologik holatlarni erta tashxislash amaliyoti va uni bartaraf etish yuzasidan ko‘rsat-ma va tavsiyalar, metodik ishlanmalar amalga oshirilmagani, nutqni idrok etish buzilishlari bilan bog‘liq holatlar o‘zbek amaliy tilshunosligida lingvistik va meto-dik jihatdan yetarli tadqiq etilmaganini e’tiborga olsak, “O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim” loyihasi va uning doirasida ishlab chiqilayotgan keng qamrovli neypsixolo-gingvistik tashxis metodikasi sohadagi bo‘shliqlarni to‘ldirish, har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni kamolga yetkazishga ko‘mak berishni nazarda tutadi.

